Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari bo‘yicha test savollari

1. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik nima uchun zarur?

A) Monopoliyani qo‘llab-quvvatlash uchun.
B) Tadbirkorlarning raqobatbardoshligini oshirish va bozorni tartibga solish uchun.
C) Intellektual mulk ob’ektlariga bo‘lgan mutlaq huquqlar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish uchun.
D) Xususiylashtirish jarayonini tezlashtirish uchun.

2. Quyidagilardan qaysi biri monopoliyaga qarshi qonunchilikning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi?

A) Narxlarni davlat tomonidan belgilash.
B) Xatarlarni aniqlash va mazkur xatarlarning oldini olish.
C) Erkin bozor tamoyillariga amal qilish.
D) Tadbirkorlik faoliyatini cheklash.

3. Raqobatni cheklovchi xatti-harakatlarga misol bo‘la oladigan holatni belgilang:

A) Tadbirkorlarning mahsulot sifatini yaxshilashi.
B) Yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga investitsiya kiritish.
C) Erkin savdo sharoitlarining yaratilishi.
D) Korxonalar o‘rtasida narx kelishuvi.

4. Qaysi organ raqobat qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qiladi?

A) Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
B) Hisob palatasi.
C) Raqobat qo‘mitasi.
D) Davlat soliq qo‘mitasi.

5. Kartel kelishuvlari qanday oqibatlarga olib keladi?

A) Narxlarning sun’iy oshishiga sabab bo‘ladi.
B) Erkin bozor raqobatini oshiradi.
C) Ishlab chiqarish va importning qisqarishi.
D) Xaridorlar uchun mahsulot tanlovini kengaytiradi.

6. Monopol mavqega ega bo‘lgan korxona qanday holatlarda qonunni buzgan hisoblanadi?

A) Mahsulot sifati bo‘yicha reklama qilsa.
B) Bozorda yangi raqobatchilar paydo bo‘lsa.
C) Tovar assortimentini kengaytirsa.
D) Narxlarni asossiz ravishda oshirsa.

7. Konsentratsiya qanday holatda monopoliyaga qarshi qonunchilikka zid bo‘lishi mumkin?

A) Mahsulot sifatini oshirishga harakat qilinsa.

B) Kompaniyalar birlashsa.
C) Bozorda raqobatni sezilarli darajada kamaytirsa.
D) Korxonalar chet el bilan hamkorlik qilsa.

8. Davlat organlari raqobatga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?

A) Raqobatni rag‘batlantirish orqali.
B) Yirik korxonalarni himoya qilish orqali.
C) Faqat davlat korxonalariga imtiyozlar berish orqali.
D) Xususiy biznesni cheklash orqali.

9. Raqobatni cheklashga qaratilgan quyidagi harakatlardan qaysi biri noqonuniy hisoblanadi?

A) Mahsulot assortimentini kengaytirish.
B) Raqobatchilar bilan narxlar bo‘yicha kelishuv tuzish.
C) Xaridorlar uchun chegirmalar e’lon qilish.
D) Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish.

10. Monopoliyaga qarshi organ qarorlari qachon e’lon qilinishi lozim?

A) 10 kun ichida.
B) 1 oy ichida.
C) Darhol.
D) 3 kun ichida.

11. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik haqidagi ishlarni ko‘rib chiqish kim tomonidan amalga oshiriladi?

A) Raqobat qo‘mitasi.
B) Davlat soliq qo‘mitasi.
C) Oliy sud.
D) Markaziy bank.

12. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik haqidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar qaysi huquqlarga ega?

A) Ish materiallari bilan tanishish.
B) Og‘zaki va yozma tushuntirishlar berish.
C) Dalillar taqdim etish.
D) Yuqoridagilarning barchasi.

13. Raqobat qo‘mitasi qaysi holatda ish yuritishni tugatishi mumkin?

A) Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi tasdiqlanmasa.
B) Sud tomonidan qaror qabul qilingan bo‘lsa.
C) Ariza beruvchi arizasini qaytarib olsa.
D) Yuqoridagilarning barchasi.

14. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik kimlarga tatbiq etiladi?

A) Faqat yuridik shaxslarga.
B) Faqat jismoniy shaxslarga.
C) Yuridik va jismoniy shaxslarga.
D) Faqat davlat organlariga.

15. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik oqibatida yetkazilgan zarar qanday qoplanadi?

A) Davlat budjeti hisobidan.
B) Aybdor shaxslar tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda.
C) Sug‘urta kompaniyalari tomonidan.
D) Zarar qilingan shaxsning o‘zi tomonidan.

https://forms.gle/3yjz21mJXTFTmT2x6

16-09-2025-yil